

Toshkentda Afg'oniston delegatsiyasi bilan uchrashuvlar bo'lib o'tdi



O'zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vaziri Abdulaziz Komilov 9-yanvar kuni Toshkentda Afg'oniston Islom Respublikasi tashqi ishlar vaziri o'rinosi Hikmat Xalil Karzay bilan uchrashdi.

Muloqot chog'ida mamlakatlarimiz o'zaro hamkorlikni yangi bosqichga ko'tarishdan manfaatdor ekani ta'kidlandi. Ikki tomonlama aloqalarning bugungi holati va istiqboli yuzasidan fikr almashildi.



O'zbekiston Afg'onistondagi qurilish, energetika, tog'-kon sanoati va ta'lim sohalaridagi loyihalarda ishtirok etib kelmoqda. "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyatini tomonidan Hayratondan Mozori Sharifgacha temir yo'l liniyasi qurilgan. Mamlakatimizning ko'magi bilan Afg'onistonda ko'priklar, yuqori voltli elektr liniyalari, optik tolali kabel liniyalari, suv ta'minoti tarmog'i barpo etilgan. Mamlakatlarimiz o'rtaisdagi hamkorlikni yanada rivojlantirish uchun hali foydalanimagan imkoniyatlar ko'p.

Uchrashuvdan so'ng O'zbekiston – Afg'oniston siyosiy maslahatlashuvlarining birinchi raundi bo'lib o'tdi.

Tadbirda mamlakatlarimiz o'rtaisdagi siyosiy, savdo-iqtisodiy, transport kommunikatsiyalari, madaniy-gumanitar kabi sohalardagi aloqalarni rivojlantirish,

shuningdek, xalqaro tashkilotlar doirasidagi hamkorlik, mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik dolzARB masalalar muhokama qilindi.

Afg'oniston delegatsiyasi O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligida ham muzokara o'tkazdi.